

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.32/30.12.2020.Yu/74.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

MADRAHIMOVA GULJAHON RUZIMBOY QIZI

**MEHNAT TA‘TILLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH
MASALALARI**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta‘minot huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the doctoral dissertation abstract

Madrahimova Guljahon Ruzimboy qizi

Mehnat ta'tillarini huquqiy tartibga solish masalalari.....3

Мадрахимова Гулжахон Рузимбой кизи

Вопросы правового регулирования трудовых отпусков.....21

Madрахimova Guljahon Ruzimboy qizi

Issues of legal regulation of annual leaves.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....46

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.32/30.12.2020.Yu/74.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

MADRAHIMOVA GULJAHON RUZIMBOY QIZI

**MEHNAT TA‘TILLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH
MASALALARI**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta‘minot huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2PhD/Yu544 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.jxu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmanova Muborak Akmaljanovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismoilov Shuhrat Abdusaminovich
yuridik fanlar doktori

Muradova Gulnora Mirzaxmatovna
yuridik fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish
markazi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil «__» fevral soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +99871-230-32-71; faks: +99871-230-32-82; e-mail: mjxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +99871-230-32-71; faks: +99871-230-32-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «__» ____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «__» ____ dagi ____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

M.X.Rustambayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Sh.M.Gaziyev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

M.B.Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda dam olish huquqi insonning tabiiy va ajralmas huquqi sifatida ko'plab xalqaro standartlarda o'z aksini topgan. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1970-yilda qabul qilingan «Yillik haq to'lanadigan mehnat ta'tillari to'g'risida»gi 132-sonli Konvensiyasiga muvofiq xodimlar har yili uch haftalik yillik haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Shunga qaramasdan, xalqaro standartlarda belgilanganidan kam bo'lgan mehnat ta'tilining muddatlari Osiyo va Shimoliy Amerikaning bir qator davlatlarida o'rnatilgan. Xususan, Gonkong, Singapur, Pokiston, Vetnamda mehnat ta'tilining eng kam muddati 14 kunni, Hindiston va Indoneziyada esa 12 kunni tashkil etadi¹.

Jahonda so'nggi vaqtlarda yillik mehnat ta'tillariga oid klassik qoidalarni isloh qilishga qaratilgan harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yillik mehnat ta'tiliga bo'lgan huquqdan voz kechishga ta'qiq o'rnatish (Turkiya), minimal mehnat ta'tili muddatini uzaytirish va haq to'lanadigan mehnat ta'tilini pullik kompensatsiya bilan almashtirishga yo'l qo'yimaslik (Yevropa Ittifoqi davlatlari), yillik mehnat ta'tilining muddatini xodimning yoshi va mehnat stajiga bog'liq holda oshirib borish (Kanada), mehnat ta'tilining bir qismini jamg'arib borish (Finlyandiya), mehnat ta'tili ko'chirilganda qo'shimcha mehnat ta'tili berish, mehnat ta'tiliga chiqiladigan alohida davrni belgilab qo'yish, korxonada faoliyatini to'xtatib turish orqali barcha xodimlarning bir vaqtda mehnat ta'tili olish huquqidan foydalanishini ta'minlash (Fransiya), mehnat ta'tili davrida xodimning yollanish asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmasligi, mehnat ta'tili vaqtida istisno holatlarda ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilish mumkinligiga oid qoidalar (Germaniya) shular jumlasiga kiradi. Demak, ushbu mamlakatlarda yillik mehnat ta'tilidan foydalanish borasida joriy etilgan yangi qoidalarni o'rganishga obyektiv ehtiyoj mavjud bo'lib, u O'zbekistonda yillik mehnat ta'tilini huquqiy tartibga solinishi rivojlanishiga, xodimlarning manfaatlarini to'laroq ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Respublikamizda yillik mehnat ta'tilidan foydalanish sohasida bir qator nazariy va amaliy masalalar mavjud bo'lib, ulardan mehnat ta'tili, mehnat ta'tilini olish huquqi, mehnat ta'tilidan foydalanish huquqi, ish yili, mehnat ta'tilini uzaytirish, mehnat ta'tilini ko'chirish kabi tushunchalarga huquqiy ta'riflarni ishlab chiqish, yillik mehnat ta'tillarini taqdim etishda mehnat qonunchiligini to'g'ri tatbiq etish dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan 2021-yilda o'tkazilgan tekshirishlar va o'rganishlar natijasida 52530 ta mehnat va mehnatni muhofaza qilish qonun talablari buzilganligi aniqlangan. Shundan mehnat ta'tillari bo'yicha qonun talablari buzilganligi 4,89 foizni yoki 2568 tani tashkil qilgan².

Shuningdek, 2020-2022 yillar davomida mehnat ta'tillarini tartibga solish sohasida nizolar bo'yicha 154 ta sud jarayoni (2020-yilda 67 ta, 2021-yilda 34 ta va 2022-yilda 53 ta) o'tkazilgan. Shundan, 23 ta jarayonda da'vo

¹ https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_protect/---protrav/---travail/documents/publication/wcms.pdf

² <https://mehnat.uz/uz/news/davlat-mehnat-inspektsiyasi-tomonidan-2021-yil-davomida-amalga-oshirilgan-ishlar-tugrisida-h-i-s-o-b-o-t>

qisman qanoatlantirilgan, 86 ta jarayonda da'vo to'liq qanoatlantirilgan, 8 tasida da'vo qanoatlantirilmagan, 18 ta da'vo arizasi ko'rmasdan qoldirilgan va 3 ta da'vo arizasi qaytarilgan¹. Ta'kidlash lozimki, bu ma'lumotlar vakolatli davlat organlari tomonidan aniqlangan ko'rsatkichlardir, amalda esa yillik mehnat ta'tillaridan foydalanishda huquq buzilishi bilan bog'liq raqamlar ko'proqni tashkil qiladi.

Bu esa xodimlarning asosiy mehnat huquqlaridan biri hisoblangan mehnat ta'tilini olish va undan foydalanish huquqining vujudga kelishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ushbu huquqni amalga oshirish kafolatlari, mehnat ta'tillarining turlari, mehnat shart-sharoitlari bilan bog'liq holda qo'shimcha mehnat ta'tillarini belgilash mexanizmlarini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, «Aholi bandligi to'g'risida»gi, «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2018-yil 20-avgustdagi PQ-3913-son «Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatini muhofaza qilish tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22- sentyabrdagi 263-son «Xodimlar mehnatini muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarori, 2019-yil 6-sentyabrdagi 743-son «Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiya mavzusiga doir masalalar bo'yicha huquqshunos olimlar tomonidan ilmiy maqolalar e'lon qilingan yoki o'quv adabiyotlari doirasida yoritilgan bo'lib, huquqshunos olimlar A.Inoyatov, M.B.Usmonov, M.A.Usmanova, Y.Tursunov, M.Y.Gasanov, Y.A.Sokolov, G.K.Sarimsakova, Sh.Ismoilov, B.Isroilov, B.Raximberganova, M.Maxamatov hamda amaliyotchi mutaxassislar X.Yodgorov, G.Ziganshina, Sh.Axatova, A.Navotniy, L.Xikmatova, X.Premqulovlarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan.

Shu o'rinda tadqiqot mavzusi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar olimlari tomonidan bevosita o'rganilganligini qayd etish lozim. Xususan, ularga A.V.Bondarenko, A.E.Zmushko, D.I.Logachev, N.A.Postnikov, J.A.Xamzina, O.S.Xoxryakova, N.A.Surkan, N.N.Tishkunova, M.A.Kurennoy, A.I.Petrov, Y.Xachaturyan, O.D.Mamedov kabi olimlarning ishlarini keltirib o'tish mumkin.

¹ <https://public.sud.uz/report/CIVIL>

Xorijiy mamlakatlarda haq to‘lanadigan yillik mehnat ta‘tilini huquqiy tartibga solish masalalari M.Wooden, D.Warren, P.Gregg, J.Wadsworth, M.Sargent, D.Lewis, R.Ray, J.Schmitt, C.Stothers, Porter, O.E.Erdogdu, M.N.Berrigan, K.Ogura, A.Bogg, C.J.Ramirez, M.A.Panasci, D.McCann kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan¹.

Tadqiqot mavzusi maxsus monografik tadqiqot predmeti bo‘lmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligini takomillashtirish» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mehnat ta‘tilini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mehnat ta‘tili tushunchasini aniqlash va uni tasniflashning mezonlarini ishlab chiqish;

mehnat ta‘tilini dam olish vaqtining boshqa turlaridan farqlovchi belgilarini aniqlash;

mehnat ta‘tilining qonunchilikda belgilangan minimal muddatini hamda uni uzaytirish asoslari va usullarini tahlil qilish;

mehnat ta‘tilining turlarini, ularning muddatlarini, berish shartlari va tartibini ko‘rib chiqish;

asosiy uzaytirilgan mehnat ta‘tillarini huquqiy tartibga solish va differentsiatsiya qilish asoslarini ko‘rib chiqish;

qo‘shimcha mehnat ta‘tili tushunchasi, uning tasniflanishi mezonlari va ahamiyatini ko‘rsatib berish;

mehnat ta‘tiliga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

mehnat ta‘tillari haqidagi xalqaro huquqiy normalar mazmunini, shuningdek XMTning konvensiyalari va tavsiyalarining qoidalarini milliy qonunchilikda aks ettirish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini xodimlarning haq to‘lanadigan yillik mehnat ta‘tili sohasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti xodimlarning haq to‘lanadigan yillik mehnat ta‘tiliga bo‘lgan huquqini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, Xalqaro Mehnat Tashkiloti norma ijodkorligi, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo‘lgan konsepsiyalar va ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, analiz va sintez qilish, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, sotsiologik, empirik tadqiqot, statistik ma‘lumotlar tahlili va ijtimoiy so‘rov o‘tkazish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xodimlarga asosiy mehnat ta‘tilning eng kam muddatini kalendar kunlar bilan belgilash va uning muddatini barcha xodimlar uchun yigirma bir kalendar va eng

¹Mazkur olimlar ilmiy ishlarining to‘liq ro‘yxati foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

ko'p muddatini ellik olti kalendar kundan iborat etib belgilash hamda ushbu muddatlarni jamoa va individual shartnomaviy tarzda uzaytirish mumkinligi asoslantirilgan;

asosiy uzaytirilgan ta'tillarni qonunchilikda belgilanganiga nisbatan ko'paytirib belgilash lokal hujjatlar orqali, jamoa shartnomaviy va individual shartnomaviy tarzda amalga oshirilishi mumkinligi asoslantirilgan;

yillik qo'shimcha mehnat ta'tillarini berishda differensiyalash mezonlarini ishlab chiqish maqsadida bir tashkilotda ko'p yillik ish stajiga ega bo'lgan xodimlar, shuningdek normalanmagan ish kunida ishlovchi xodimlarni qo'shimcha mehnat ta'tilini olish huquqiga ega bo'lgan xodimlar toifasiga kiritish zarurligi asoslantirilgan;

ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish munosabati bilan ish beruvchi tashabbusiga ko'ra xodim vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda yillik mehnat ta'tilining muddatini kamaytirishni ta'qiqlash zarurati asoslantirib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tilidan foydalanishda lokal normativ hujjatlarning qo'llanilishini kengaytirish zarurligi asoslantirilgan;

mehnat ta'tillarini differensiyatsiya qilishda mehnatning og'irlik darajasi, xususan, bajariladigan ishning xususiyati va mazmuni, tabiiy-iqlim sharoitlari, shuningdek xodimning yoshi, nogironligi bilan bog'liq subyektiv omillar hisobga olinishi haqidagi qoidalar ishlab chiqilgan;

mehnat ta'tili muddatini uzaytirishning majburiy asoslari markaziy tartibda belgilanishi ko'rsatib berilgan;

mehnat ta'tiliga oid xalqaro standartlarni mehnat to'g'risidagi qonunchiligiga joriy etish zarurligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, sotsiologik tadqiqotlarning anketa, intervyu va ekspert baholash shakllariga asoslangan, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy natijalari mehnat huquqining dam olish vaqti va mehnat ta'tili haqidagi ilmiy qarashlarni kengaytiradi, mehnat ta'tili tushunchasi, mehnat ta'tilining turlari, mehnat ta'tilidan foydalanish kabi muhim nazariy masalalarni hal qilishda ahamiyatli hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan o'quv maqsadlarida, xususan yuridik va noyuridik oliy ta'lim muassasalarida mehnat huquqi fanini va boshqa maxsus kurslarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan takliflarni amalga oshirish mehnat ta'tilini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga, shuningdek xodimlarning mehnat ta'tiliga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

xodimlarga asosiy mehnat ta'tilning eng kam muddatini kalendar kunlar bilan belgilash va uning muddatini barcha xodimlar uchun yigirma bir kalendar va eng ko'p muddatini ellik olti kalendar kundan iborat etib belgilash hamda ushbu muddatlarni jamoa va individual shartnomaviy tarzda uzaytirish haqidagi taklif 2022-yil 28-oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 217, 222-moddalarida o'z aksini topgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 15-sentyabrdagi 02/6-09-12-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi 12/22-04-son dalolatnomalari*). Ushbu taklifning joriy etilishi mehnat ta'tilning kalendar kunlar bilan hisoblanishini va uning eng kam hamda eng ko'p muddatini belgilanishiga, shuningdek ushbu norma asosida mehnat ta'tili muddatining jamoa va individual shartnomaviy tarzda uzaytirilishi mumkinligi belgilanishiga xizmat qilgan;

asosiy uzaytirilgan ta'tillarni qonunchilikdan tashqari belgilash, shuningdek ushbu ta'tilning muddatini qonunchilikda belgilanganiga nisbatan ko'paytirish jamoa shartnomaviy va individual shartnomaviy tarzda amalga oshirish mumkinligi haqidagi taklif 2022-yil 28-oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 218-moddasida o'z aksini topgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 15-sentyabrdagi 02/6-09-12-son hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 18-yanvardagi 15/22-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi asosiy uzaytirilgan mehnat ta'tillarini nafaqat qonunlar, balki jamoa shartnomaviy va individual shartnomaviy usullarda ham belgilash imkonini bergan;

yillik qo'shimcha mehnat ta'tillarini berish asoslari va differensiyatsiyalash mezonlari, xususan, bir tashkilotda ko'p yillik ish stajiga ega bo'lgan xodimlar, shuningdek normalanmagan ish kunida ishlovchi xodimlarni qo'shimcha mehnat ta'tilini olish huquqiga ega bo'lgan xodimlar toifasiga kirishi haqidagi taklif 2022-yil 28-oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 218-moddasida o'z aksini topgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 15-sentyabrdagi 02/6-09-12-son hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 29-iyundagi berilgan 06-13/23-son dalolatnomalari*). Ushbu taklifning joriy etilishi yillik qo'shimcha mehnat ta'tillarini berish asoslari va differensiyatsiyalash mezonlarini belgilanishiga xizmat qilgan;

ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish munosabati bilan ish beruvchi tashabbusiga ko'ra xodim vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda yillik mehnat ta'tilning muddati kamaytirilmasligi haqidagi taklif 2022-yil 28-oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 223-moddasida o'z aksini topgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 15-sentyabrdagi 02/6-09-12-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi mehnat ta'tilini olish huquqini beruvchi ish stajini tan olish imkonini ta'minlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, 6 ta ilmiy maqola (3 ta xorijiy nashrda), 5 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, yettita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning «**Mehnat ta'tillarining umumiy tavsifi va huquqiy tabiati**» deb nomlangan birinchi bobida mehnat ta'tillari tushunchasi, mohiyati va shaxsning mehnat qilish huquqini ro'yobga chiqarishdagi ahamiyati, mehnat ta'tillarini berishni huquqiy tartibga solinishining asosiy tamoyillari o'rganilgan.

Mazkur bobda mehnat ta'tili tushunchasi, mehnat ta'tilini olishga bo'lgan huquq, ushbu huquqni vujudga kelish shartlari va mazmuni, uni amalga oshirish kafolatlari, mehnat ta'tillarining ayrim turlarini huquqiy tartibga solish, mehnat ta'tillari haqidagi qonunchilikni sharhlash va qo'llash bo'yicha nizoli masalalarni hal qilishga oid umumiy nazariy muammolar tadqiq qilingan. Shuningdek, mehnat ta'tillaridan foydalanishga oid asosiy tamoyillar tasniflangan.

Mehnat ta'tillarini huquqiy tartibga solishning nazariy qoidalarini ochib berishda olimlarning (A.A.Inoyatov, M.B.Usmanov, M.A.Usmanova, Y.Tursunov, M.Y.Gasanov, Y.A.Sokolov, G.K.Sarimsakova, Sh.A.Ismoilov, B.Isroilov, B.Raximberganova, J.A.Xamzina, O.S.Xoxryakova, A.V.Bondarenko, M.Wooden, D. Warren, N.N.Tishkunova, N.A.Postnikov) fikr-mulohazalari tahlil qilingan, ular bilan munozaraga kirishilgan. Shuningdek, bir qator xorijiy davlatlar (Fransiya, Qozog'iston, Rossiya) mehnat qonunchiligidagi mehnat ta'tillarini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq tushunchalar berilgan normalar qiyosiy-huquqiy tahlil etilgan.

Ushbu bobda «mehnat ta'tilini olish huquqi» va «mehnat ta'tilidan foydalanishga bo'lgan huquq» tushunchalari bir-biridan farqlanishiga urg'u beriladi. Xususan, xodimning ish beruvchi bilan mehnat shartnomasini tuzishi uning ta'til olishga bo'lgan huquqini, xodimning ish davri davomiyligi esa uning ta'tildan foydalanish huquqini vujudga keltirishi haqida asosli fikr-mulohazalar ilgari suriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 38-moddasida barcha yollanib ishlayotgan fuqarolarning dam olish huquqi mustahkamlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 16-moddasida (Xodimning asosiy mehnat huquqlari bobida) haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tilini berish orqali ta'minlanadigan dam olish har bir xodimning huquqi ekanligi qayd etilgan. Shunga qaramasdan, amaliyotda mehnat ta'tilini olish huquqidan to'liq va qisman voz kechish, mazkur huquqni ish beruvchi tomonidan rad qilish yoki cheklashga oid

misollar ko'plab uchraydi. Bu tadqiqotchi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida o'z isbotini topgan. So'rovnoma ishtirokchilarning 36,8 foizi mehnat ta'tillarini berishda ish beruvchi tomonidan ta'tillar jadvaliga rioya etilmasligini, 21,2 foizi ta'tillar jadvalini tuzishda xodimlarning xohishi inobatga olinmasligini, 61 foizi mehnat ta'tili uchun haqni o'z muddatida to'lab berilmasligini, 26,5 foizi mehnat ta'tili davrida ish beruvchi tomonidan xodimning roziligisiz ishga chaqirtirib olinganini, 30,4 foizi ish yili davomida ta'tildan umuman foydalana olmaganini, 37,5 foizi o'z tashkilotida ish beruvchi tomonidan mehnat ta'tilini boshlanish vaqti to'g'risida kamida 15 kun oldin xodimlarni xabardor qilish to'g'risidagi qoidaga rioya etilmasligini ma'lum qilgan. Shuning uchun mehnat ta'tilini olish huquqini va ushbu huquqni cheklanishini ta'qiqlovchi normalarni aynan Mehnat kodeksining «Mehnat ta'tillari» bobi yoki paragrafiga kiritish taklif etilgan. Mazkur huquqni aynan shunday tartibda mustahkamlash bir qator xorijiy mamlakatlar tajribasida ham mavjudligiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Turkiyada mehnat ta'tilini olish huquqidan voz kechish, rad qilish va cheklash mumkin emasligi, ushbu huquqdan to'liq yoki qisman voz kechish to'g'risidagi har qanday kelishuv haqiqiy emasligi, Fransiyada esa xodimning haq to'lanadigan ta'tildan har yili foydalanishga oid huquqidan voz kechishi yoki uni rad qilishni ko'zda tutuvchi mehnat shartnomasining shartlari haqiqiy emasligi huquqiy mustahkamlangan. Shu nuqtai nazardan mazkur huquqni to'liq yoki qisman rad qilish haqidagi har qanday kelishuv haqiqiy hisoblanmasligi haqidagi qoidalarni mehnat qonunchiligiga kiritish zarurligi asoslantirilgan.

Haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tili dam olish vaqtining bir turi hisoblanadi. Lekin ushbu ta'til dam olish vaqtining boshqa turlaridan farqli belgilarga ega. Xususan, barcha xodimlarga ish joyi va ish turidan, mehnatning boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar mehnat ta'tili berilishi, haq to'lanadigan mehnat ta'tilining minimal muddati qonun bilan belgilanishi va uni kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi, mehnat ta'tili berilganda ish joyi va o'rtacha ish haqining saqlanishi, mehnat ta'tilini berish uchun xodimning ish beruvchida muayyan vaqt davomida ishlagan bo'lishi, ishdan bo'shaganda foydalanilmagan ta'til uchun kompensatsiya to'lanishi, mehnat ta'tilini bo'lishga yo'l qo'yilishi kabilar shular jumlasidandir. Boshqa barcha ta'tillar (homiladorlik va tug'ish ta'tili, bola parvarishlash ta'tili, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, o'qish bilan bog'liq ta'tillar, ijodiy ta'tillar) aniq maqsadlar uchun beriladi va ular dam olish bilan bog'liq bo'lmaydi. Ulardan ko'pchiligini ta'til deb shartli ravishda aytish mumkin, aslida esa ular xodimning faoliyat turi almashganligini bildiradi.

Muallifning fikricha, milliy mehnat qonunchiligida yillik mehnat ta'tiliga berilgan ta'rif uning mazmunini to'liq ochib berilmagan. Yillik mehnat ta'tiliga berilgan tushunchadagi bo'shliqlarni bartaraf etish va uni yangi mazmun bilan to'ldirish maqsadida mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Mazkur ta'rifga asosan «Ish beruvchi bilan mehnat shartnomasini tuzgan va mehnatga oid munosabatlarga kirishgan har bir xodim uchun muddati qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadigan yillik haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqi paydo bo'ladi. Mehnat ta'tillari xodimning ish joyi (lavozimi) hamda o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda har ish yili uchun beriladi».

Shuningdek, mazkur bobda mehnat ta'tillarini berish sohasidagi asosiy tamoyillar turlari o'rganildi, huquqshunos olimlarning fikrlari asosida qonunchilik hujjatlari va amaliyotda tamoyillarga rioya etilmasligi holatlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida mehnat ta'tillarini berish sohasida bir qator tamoyillar mavjud bo'lishi asoslantirildi va ularga ta'riflar berildi. Xususan, mehnat ta'tillarini berishning individualligi, maqbul muddatda taqdim etish, munosib kompensatsiya to'lanishi tamoyillari shular jumlasidandir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Mehnat ta'tillarini huquqiy tartibga solish amaliyotining tahlili**» deb nomlangan. Ushbu bobda mehnat ta'tilining muddatini aniqlash, mehnat ta'tilini differentsiyalash omillari, uzaytirilgan mehnat ta'tilini belgilash asoslari, mehnatning shart-sharoitlari bilan bog'liq holda qo'shimcha mehnat ta'tilini belgilash mexanizmi, mehnat ta'tilini jamlab hisoblash tartiblari o'rganilgan. Shuningdek, mehnat ta'tillarini berish tartibiga oid muammolar va ularni huquqiy jihatdan bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan.

Milliy qonunchilikda yillik mehnat ta'tilining turlari haqida aniq qoidalarni ham belgilash talab etiladi. Xususan, mehnat ta'tilini asosiy mehnat ta'tili (minimal mehnat ta'tili va asosiy uzaytirilgan mehnat ta'tili) va qo'shimcha mehnat ta'tili (minimal yoki asosiy uzaytirilgan mehnat ta'tiliga qo'shib hisoblanuvchi)ga bo'lish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot doirasida yillik asosiy ta'til, asosiy uzaytirilgan ta'til va yillik qo'shimcha ta'tillarga ta'rif berildi. Unga ko'ra, «*Yillik asosiy ta'til bu eng kam muddati qonunchilik hujjatlarida belgilanadigan mehnat ta'tilining turidir*».

«*Yillik uzaytirilgan asosiy mehnat ta'tili – qonun hujjatlari hamda korxonalar va tashkilotning lokal hujjatlari bilan belgilab beriladigan, xodimning bajaradigan faoliyat turidan kelib chiqqan holda belgilanadigan, minimal mehnat ta'tili muddatidan ko'proq miqdorda taqdim etiladigan mehnat ta'tilining turidir*».

«*Yillik qo'shimcha ta'tillar – ayrim xodimlarga o'zlariga belgilangan asosiy (minimal yoki uzaytirilgan) ta'tildan tashqari (qo'shimcha ravishda) beriladigan mehnat ta'tilining turidir. Qo'shimcha ta'tillarning muddati va ularni berish tartibi mehnat to'g'risidagi qonunlar, boshqa normativ hujjatlar yoki mehnat shartnomasining shartlari bilan belgilanadi. Yillik qo'shimcha ta'tillar olish huquqiga ega bo'lgan xodimlar doirasi bir tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlar hisobiga kengaytirilishi zarur*».

Mazkur bobda yillik mehnat ta'tilini uzaytirish va ko'chirish tushunchalarini ochib berishga oid nazariy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Natijada ushbu tushunchalarga mualliflik ta'riflari shakllantirildi. Unga ko'ra, «*yillik mehnat ta'tilini uzaytirish deganda, xodim qonunlar va mehnat to'g'risidagi boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan obyektiv sabablarga ko'ra dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun foydalanilmasdan uzilib qolgan ta'tilning foydalanilmay qolgan qismini keyinroq muddatga surishi tushuniladi*». «*Yillik mehnat ta'tilini ko'chirish deganda esa, xodimga mehnat ta'tilini yoki uning faqat ayrim qismini ta'tillar jadvalida belgilanganidan farq qiluvchi muddatda berish tushuniladi*».

Ta'tilni uzaytirishning uni boshqa muddatga ko'chirishdan farqlovchi o'ziga xos belgisi shundaki, xodim ta'tildan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi obyektiv sabablar bartaraf etilganidan so'ng o'z mehnat vazifalarini bajarishga kirishmaydi,

balki mehnat ta'tili tugashini bildiruvchi sana kelganiga qaramay, ta'tildan foydalanishni davom ettiraveradi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida mehnat ta'tillarini ish kunlari bilan hisoblab chiqish belgilangan. Ayni paytda qonunchiligimizda ayrim toifadagi xodimlarga (xususan, nogironlarga, voyaga yetmaganlarga, xarbiylarga, prokuror-tergov va sud organlari xodimlariga) alohida normativ hujjatlar bilan yillik asosiy mehnat ta'tilining muddatini kalendar kunlar bilan belgilash hollari saqlab qolingan. Mehnat qonunchiligining mazkur qoidalarini qo'llashda muammo kelib chiqishining oldini olish uchun barcha xodimlarga ta'tilni ish kunlari yoki kalendar kunlar bo'yicha hisoblab chiqishda yagona normani o'rnatish orqali O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va alohida normativ hujjatlar o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishga qaratilgan izlanishlar amalga oshirilgan.

Yillik mehnat ta'tilining muddatini belgilashda ish yili degan tushunchadan foydalaniladi, biroq uning ta'rifi mehnat qonunchiligida belgilanmaganligi sababli, tadqiqotchi tomonidan «ish yili» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. *«Ish yili deganda xodimning muayyan ish beruvchida o'n ikki oyga teng bo'lgan va haqiqatda ish boshlangan sanadan e'tiboran hisoblab chiqariladigan ish davri tushuniladi. Agar ish yiliga kiritiladigan jami davrlar to'liq o'n ikki kalendar oydan kam bo'lsa, xodimning ish yili yetishmayotgan vaqtga surilishi lozim».*

Dissertatsiyaning **«Mehnat ta'tillarini huquqiy tartibga solish sohasidagi xalqaro tajriba va undan O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligini takomillashtirishda foydalanish istiqbollari»** deb nomlangan uchinchi bobida yillik mehnat ta'tillariga bo'lgan huquqni amalga oshirishga oid qonunchilikni takomillashtirish, mehnat ta'tillarini tartibga solish sohasidagi sud amaliyoti ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro standartlarda yillik mehnat ta'tillariga bo'lgan huquqning kafolatlanishi, rivojlangan xorij davlatlarida mehnat ta'tilini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari tahlil etilgan.

Mazkur bobda Xalqaro Mehnat Tashkilotining 52-sonli va 132-sonli «Haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tillari haqida»gi Konvensiyalarining qoidalari tadqiq etilgan. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1970-yildagi 132-sonli «Haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risida»gi Konvensiyasini O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilish zarurligi asoslantiriladi. Mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilish mehnat ta'tilidan bo'lib-bo'lib foydalanilganda bo'linadigan qismlar sonini cheklash, ish yilida xodimga mehnat ta'tilining kamida yarmidan foydalanish va qolgan qismini esa ish yili tugaganidan so'ng 18 oy davomida olishni belgilovchi yangi normalarni joriy etish imkonini beradi.

Haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tiliga bo'lgan huquq barcha rivojlangan davlatlar tomonidan to'liq tan olingan holda mazkur huquqni amalda ta'minlashning huquqiy asoslari turlicha ekanligini qayd etish o'rinli. Ayrim davlatlarda ta'tillar haqidagi qonun hujjatlari umuman mavjud emas (AQSh, Buyuk Britaniya) va ushbu masala ko'pchilik xodimlar uchun faqat jamoa shartnomalari orqali tartibga solinadi, boshqa davlatlarda (Italiya) ayrim toifadagi xodimlar uchun ta'aluqli bo'lgan ta'tillar haqidagi qonunlar mavjud, biroq asosiy qismni tashkil etuvchi xodimlar uchun ta'tillar jamoa shartnomalarida o'rnatiladi, nihoyat bir qator davlatlarda (Fransiya, Germaniya, Turkiya) ishchilarning asosiy qismi uchun maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Germaniya Federativ Respublikasining (GFR) 1963-yil 8-yanvardagi «Ta'tillar haqida»gi Qonunida barcha ishchi va xizmatchilar, shuningdek, ishlab chiqarish o'quvida bo'lganlarning haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tiliga bo'lgan huquqi mustahkamlangan. Mazkur qonunga ko'ra to'liq stavkada ishlagan xodimlar uchun minimal haq to'lanadigan mehnat ta'tili muddati 24 ish kuni etib belgilangan.

Fransiyada 1982-yil 16-yanvarda qabul qilingan Ordonansga ko'ra xodim bir oy uzluksiz ishlaganlik uchun 2,5 kun, biroq umumiy muddati 30 ish kunidan oshmaydigan ta'til olishga haqli bo'ladi. Uzrsiz sabablarga ko'ra ishda bo'lmaganlik uchun ta'til muddati shunday kunlarni chiqarib tashlagan holda mutanosib ravishda beriladi. Shunday qilib, qoida tariqasida kalendar yilda uzluksiz ishlanganda 5 haftalik haq to'lanadigan ta'til beriladi.

Turkiya Respublikasida yillik haq to'lanadigan ta'til kunlari 4857-son «Mehnat to'g'risida»gi qonunga muvofiq tartibga solinadi. Ish joyida ish boshlagan kundan boshlab kamida bir yil (sinov muddati ham hisobga olinadi) ishlagan ishchilarga yillik haq to'lanadigan ta'til beriladi. Yillik haq to'lanadigan ta'til huquqidan voz kechish mumkin emas. Ishchilarga beriladigan yillik haq to'lanadigan ta'til muddati, ish staji bir yildan besh yilgacha (shu jumladan besh yil) bo'lgan xodimlarga o'n to'rt kundan boshlab, besh yildan ortiq va o'n besh yildan kam bo'lgan xodimlarga yigirma kun, o'n besh yil va undan ko'p bo'lgan xodimlar uchun yigirma olti kundan kam bo'lishi mumkin emas.

Buyuk Britaniyada 1998-yilda qabul qilingan «Ish vaqti to'g'risida»gi Nizomda mehnat ta'tilining muddati uch haftadan iboratligi haqidagi norma mustahkamlangan. 1999-yil noyabridan ushbu Nizomning 13-moddasiga mehnat ta'tili muddatini uzaytirish bilan bog'liq o'zgartirish kiritilgan. Bugungi kunda ta'til muddati to'rt haftani tashkil qiladi.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarning tajribasi mehnat ta'tilini kalendar kunlar bo'yicha hisoblab chiqish uni qo'llash uchun qulay ekanini ko'rsatadi, ish beruvchida amal qiladigan ish vaqti rejimidan qat'i nazar mehnat ta'tilini hisoblashda yagona qoidadan foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari mehnat ta'tilini kalendar kunlar bo'yicha hisoblash xodimning o'zi uchun ham foydalidir, chunki anglo-sakson davlatlarida amal qiluvchi ta'tillarni hisoblash metodi ta'til davriga to'g'ri keladigan faqat ish kunlari uchun haq to'lashni nazarda tutadi. Kalendar tartibdan foydalanilganda esa ta'tilning har bir kuni uchun haq to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 2022-yil 28-oktyabrda yangi tahrirda qabul qilindi va uning 2023-yil 30-apreldan kuchga kirishi belgilandi. Shu bilan birga mehnat ta'tillari bilan bog'liq normalar aks ettirilgan qonun va qonun osti hujjatlarini Mehnat kodeksining yangi tahririga muvofiqlashtirish choralari belgilab olinishi lozim.

So'nggi yillarda COVID-19 nomi bilan atalgan, butun dunyo xalqlarining iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarini murakkab vaziyatga solgan koronavirus pandemiyasi amaliyotda ish beruvchi va xodimlar o'rtasida yuzaga keladigan mehnat munosabatlarida bir qator muammolarni paydo qildi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida karantin yoki favqulodda holat e'lon qilinishi munosabati bilan ish vaqti, ish rejimi, mehnat ta'tillari va xodimlarga haq to'lash masalalarini tartibga solish borasida yuzaga kelgan muammolar amaldagi normativ huquqiy hujjatlarda kamchiliklar

mavjudligini ko'rsatib berdi. Ushbu vaziyatda ish beruvchi tomonidan xodimga yillik mehnat ta'tilini, istisno tariqasida, ta'tillar jadvaliga rioya qilmagan holda berish tartibining qonuniy asosini yaratishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shu sababli, ish beruvchi yillik mehnat ta'tilini barcha yoki ayrim toifadagi xodimlarga oldindan ko'rib bo'lmaydigan istisno holatlarda hamda xom ashyo resurslari, energiya ta'minoti yo'qligi, tabiiy ofatlar, talafotlar bilan bog'liq holda to'satdan ishni to'xtatib turilganda muddatidan avval taqdim etishga haqli ekanligini mustahkamlash lozim.

Tadqiqot olib borish jarayonida dissertant tomonidan mehnat ta'tillarini tartibga solish sohasidagi sud amaliyoti o'rganilgan. 2020-2022-yillar davomida mehnat ta'tillarini tartibga solish sohasida nizolar bo'yicha 154 ta sud ishlari (2020 yilda 67 ta, 2021 yilda 34 ta va 2022 yilda 53ta) o'tkazilgan. Shundan, 23 ta ishda da'vo qisman qanoatlantirilgan, 86 ta ishda da'vo to'liq qanoatlantirilgan, 8 tasida da'vo qanoatlantirilmagan, 18 ta da'vo arizasi ko'rmasdan qoldirilgan va 3 ta da'vo arizasi qaytarilgan. O'rganishlar natijasi hanuzgacha mehnat ta'tillarini tartibga solish sohasida xodimlarning huquqini cheklash (ta'tillar jadvaliga rioya qilmaslik, foydalanilmagan mehnat ta'tillari uchun pullik kompensatsiya to'lamaslik) holatlari amaliyotda uchrab turganligini ko'rsatgan.

Shuningdek, amaliyotda ish hajmi ortganligi sababli, xodimlarni muddatidan oldin ta'tildan chaqirib olish holati kuzatilmoqda. Qonunchilikda ta'tildan chaqirib olinayotgan xodimning huquq va manfaatlari himoya qilish maqsadida mehnat ta'tilidan chaqirib olish to'g'risida ish beruvchining talabini bajarmaganlik mehnat intizomini buzish hisoblanmasligi hamda mehnat ta'tilining foydalanilmay qolgan qismini xodimlarga ushbu ish yili mobaynida boshqa vaqtda berilishi yoxud kelgusi ish yilining ta'tiliga qo'shilishi kerakligi belgilovchi qoidani qonunchilikda mustahkamlab qo'yish taklifi bildirilgan.

Mehnat ta'tillarining turlari bilan bog'liq muammoli holatlardan yana bittasi – mehnat ta'tillarining tarkibiy qismlari bo'lgan asosiy uzaytirilgan ta'til va qo'shimcha ta'tilni farqlovchi aniq mezonlar mehnat qonunchiligida o'zining aniq ifodasini topmagan. Mazkur ta'til qismlarini farqlash bo'yicha mezonlar mehnat huquqi nazariyasida ham to'liq ishlab chiqilmagan. Muallifning fikricha, asosiy uzaytirilgan va qo'shimcha mehnat ta'tili uchun xos bo'lgan umumiy va xususiy belgilar mavjudligini ta'kidlash o'rinli hisoblanadi. Umumiy belgi shundan iboratki, har ikki ta'til qismlari mehnatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Asosiy uzaytirilgan ta'tillarda ayrim toifadagi xodimlarning huquqiy maqomi ahamiyatga ega. Masalan, voyaga yetmaganlarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga muddati o'ttiz kalendar kundan iborat asosiy uzaytirilgan ta'tillar. Qo'shimcha ta'tillarda esa asosiy urg'u mehnatning zararli, og'ir va xavfli sharoitlari bilan bog'liq holda beriladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, asosiy uzaytirilgan va qo'shimcha mehnat ta'tillari o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi aniq mezonlarni ishlab chiqish zarurligi haqida xulosaga kelindi.

Tadqiqot doirasida xodimlarning yillik mehnat ta'tillaridan foydalanish amaliyotida va ularni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida yuzaga kelayotgan muammolar atroflicha o'rganilgan, tahlil qilingan hamda aniqlangan maummolarni bartaraf etish yuzasidan xalqaro standartlar va xorijiy tajriba asosida takliflar shakllantirilgan.

XULOSA

Mehnat ta'tillarini huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq etilishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Quyidagi tushunchalarning mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi:

«yillik mehnat ta'tili» – minimal muddati amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadigan hamda xodimga uzluksiz dam olish va mehnat qobiliyatini tiklash uchun uning ish joyi (lavozimi) hamda o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda har yili ish yili davomida beriladigan vaqt davridir.

«mehnat ta'tilini olish huquqi» – bu xodim va ish beruvchi o'rtasida mehnat shartnomasi tuzilganligi asosida vujudga keladigan huquq.

«mehnat ta'tilidan foydalanish huquqi» – xodimning ish davri davomiyligi asosida vujudga keladigan huquq.

«ish yili» – xodimning muayyan ish beruvchida o'n ikki oyga teng bo'lgan va haqiqatda ish boshlangan sanadan e'tiboran hisoblab chiqariladigan ish davri tushuniladi.

«mehnat ta'tilini uzaytirish» – ish yili davomida ta'til vaqtida undan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi asoslar kelib chiqqan taqdirda ta'til muddatining uzilishi va ushbu uzilishlar davriga ta'til muddatining belgilangan vaqtdan ortiq davom etishi tushuniladi.

